

### **Bir va ikki urug'pallali o'simliklar urug'larining tuzilishi**

Andijon davlat Pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi  
1-bosqich 103-guruh talabasi

#### **Toxirjonova Mushtariy Ibratbek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bir va ikki urug'pallali o'simliklar haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, bir va ikki urug'pallali o'simliklar urug'larining tuzilishi, tarkibi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Urug'palla, bir urug'pallali o'simliklar, ikki urug'pallalilar o'simliklar, endosperm, plumula, fadikula.

O'simliklar urug' pallalari soniga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi: bir urug'pallali o'simliklar va ikki urug'pallali o'simliklar. Ushbu guruhlar urug', ildiz, poya, yaproq va gul tuzilishi bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Bir urug'pallali o'simliklar (Monokotlar) urug' pallasi bitta urug' pallasi bo'ladi. Ildiz tizimi poyasimon ildiz tizimi, ya'ni birlamchi ildiz yo'qolib, o'rniga ko'plab yon ildizlar rivojlanadi. Yaproq tomirlanishi parallel yoki yoysimon. Gulli qismlar 3 yoki uning ko'paytmalari (6, 9...) shaklida bo'ladi. Odatda o'zak poyali (ichki qismi bo'sh), o'zakda kambiy rivojlanmagan. Misollar: Bug'doy, makkajo'xori, piyoz, nilufar, sholi, palma. O'sish ko'pincha qisqa muddatli bo'lib, yog'in-sochin va namlikka moslashgan. Ildiz tizimi yer yuzasida keng yoyilgan. Ikki urug'pallali o'simliklar (Dikotlar) urug' pallasi ikki urug' pallasi bo'ladi. Asosan o'q ildiz tizimi bo'lib, birlamchi ildiz rivojlanib, undan yon ildizlar o'sadi. Yaproq tomirlanishi to'rsimon yoki shoxlanib keladi. Gulli qismlar 4, 5 yoki uning ko'paytmalari (8, 10...) tartibida joylashadi. Poyasi yog'ochlanish qobiliyatiga ega bo'lgan o'zakli. Kambiy mavjud bo'lib, poya kengayishi mumkin. Misollar: Olma, o'rik, loviya, no'xat, pomidor, paxta. O'sish jarayoni uzoq davom etadi va ko'p hollarda yog'ochlanish sodir bo'ladi. Ildiz tizimi chuqurroq rivojlanib, suv va oziqa moddalarni chuqur qatlamlardan oladi.

Urug' – o'simlikning generativ organi bo'lib, unda yangi o'simlikning boshlang'ich qismlari mavjud. Bir va ikki urug'pallali o'simliklar urug'lari o'zining ichki va tashqi tuzilishi bilan farqlanadi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Bir urug'pallali o'simliklar urug'i tuzilishi. Bir urug'pallali o'simlik urug'i oddiyroq va oziqa moddalari asosan endospermida joylashgan. Faqat bitta urug' pallasi bo'ladi. U endospermni qisman o'rab turadi va yosh o'simlik uchun oziq moddalarini so'rishda yordam beradi. Endosperm urug'dagi oziqa moddalarning asosiy manbai hisoblanadi. Kraxmal, yog' va oqsil kabi moddalarni saqlaydi. Radikula (ildiz boshlang'ichi) ildizning dastlabki tuzilishi. Endosperm bilan himoyalanganiga. Plumula (novda boshlang'ichi) asosiy poya va yaproqlarning boshlang'ich qismi hisoblanadi. Himoyalovchi qatlam bilan qoplangan. Urug' qobig'i urug'ni tashqi shikastlanish va qurishdan himoya qiladi. Misol: Bug'doy urug'i qalin qobiq bilan himoyalangan. Endosperm rivojlangan, oziq moddalar unda joylashgan. Radikula va plumula kichik, himoya qatlamida yashirin.

Ikki urug'pallali urug'larning tuzilishi murakkabroq bo'lib, oziqa moddalar asosan urug' pallalarida to'planadi. Urug' pallasi ikki dona. Oziqa moddalari (krahmal, oqsil va yog'lar) pallalarda saqlanadi. Pallalar o'simlik o'sishida oziq modda yetkazadi. Endosperm rivojlanmagan yoki yo'q. Oziqa moddalari urug' pallalarida to'planadi. Radikula (ildiz boshlang'ichi) yaxshi rivojlangan. Kelajakda asosiy ildiz hosil qiladi. Plumula (novda boshlang'ichi) kelajakda poya va birinchi yaproqlarni hosil qiladi. Yaxshi ko'rinadi. Urug' qobig'i urug'ning tashqi himoya qatlami. Suv va namlik o'tishiga imkon beradi. Misol: Loviya urug'i ikki katta palladan iborat. Endosperm yo'q, oziqa moddalar pallalarda saqlangan. Radikula va plumula aniq ko'rinadi.

Xususiyat	Bir urug'pallali	Ikki urug'pallali
Urug'palla soni	Bitta	Ikkita
Endosperm	Yaxshi rivojlangan	Yaxshi rivojlanmagan yoki yo'q
Ozuqa moddalar joylashuvi	Endospermida	Urug'pallalarida
Radikula va pluma	Kichik va yashirin	Yaxshi rivojlangan, ko'rinadi.



Misol	Bug'doy, makkajo'xori va sholi	Loviga, no'xat, olma
-------	--------------------------------	----------------------

**Xulosa:** Bir va ikki urug' pallali o'simliklar urug'lari oziq moddalarni zaxiralash va unib chiqish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu ularning ekologik sharoitga moslashuvchanligini ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan asabiyotlar

1. Karimov N.K., Abdullayev M.A. "O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi", Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2015.
2. Gulomov U.G. "Botanika: O'simliklar hayoti", Toshkent: Fan, 2008.
3. Smith, A., & Lee, B. Cell Structure and Function. Academic Press, 2021.
4. Raven, P. H., & Johnson, G. B. Biology of Plants. W.H. Freeman, 2018.
5. Tanford, C., & Reynolds, J. Nature's Robots: A History of Proteins. Oxford University Press, 2017.

Research Science and  
Innovation House